

## IMOM ABU HANIFANING FAQIH SIFATIDA SHAKLLANISHIDA KUFA FIQHIY MAKTABINING O'RNI

*Saidhanbaleva Soliha Saidafzal qizi*

*O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi Islomshunoslik  
fakulteti 4-bosqich Islom Huquqi guruhi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Hanafiylik mazhabi asoschisi Abu Hanifa rohimatullohi alayhining hayotlari, ilk ilmiy faoliyatlarini va mazkur faoliyatlarida sahabalar asos solgan Kufa fiqh maktabining o'rni va ahamiyati, sahabalar orasidan Abu Hanifa rohimatullohu alayhining ustozlari hamda Imomi A'zamning hadis ilmidagi foaliyatlariga oid notog'ri fikrlarga raddiyalar, haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** *Imom Abu Hanifa, Hanafiylik, sahabalar, Kufa fiqhiy maktabi, Basra fiqhiy maktabi, ilk mufaqqihlar, tobeinlar, muhaddislar, tarojim va monoqib kitoblar.*

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tarixiy islohotlar diniy-ma'rifiy soha taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans sari harakat qilish tashabbusi xalqimiz hayotiga jo'shqinlik baxsh etishi, munavvar istiqbolga ishonchni mustahkamlashi bilan bir qatorda har bir fuqaro zimmasiga tarixiy mas'uliyat yuklaydi. Mana shunday yangi davrda, yangicha fikrlash, yangicha hayot kechirish davr talabi. Yangicha yashash uchun albatta ortni, ya'ni o'tmish chizgilarini ko'zdan yana ham teran kechirmoq lozimdir.

O'rta asrlarda islom olami ilm-fan va ma'rifatning, shu bilan birga san'at, madaniyat va me'morchilikning ham markazi bo'lgan Bog'dod, Damashq, Kufa, Basra, Samarcand va Buxoro kabi shaharlar o'sha davrda ilm-fan va madaniyat o'chog'i bo'lgan. Lekin afsuski, XX - asrning oxirgi o'n yiliga qadar, sobiq ittifoq davrida islom olimlarining nomlari yemirildi, ularning hayotlarini yoritish, hattoki eslash qat'yan man qilindi, "Sizlar savodsiz xalqsizlar" degan tamg'a bosildi. Natijada, o'zbek xalqi ularning kimligini bilmadi, o'zini savodsiz millat deb hisobladi. Allohga shukrlar bo'lsinki, yorug' kun kelib, o'zbek xalqidan bunday tamg'a olindi, mute'lilik zanjiri uzildi, o'zbek xalqi islom tarixiga, undagi olimlariga, o'zining diniy qadriyatlariga g'urur bilan qaraydigan bo'ldi. Mustaqillik yillarida boshlab, ayni unut bo'lgan islom olimlarining nomlarining qayta tanila boshlandi, ularning boy ilmiy merosini o'zbek xalqi ongi va shu'uriga yetkazish siyosati ilgari surildi. Endi yelkasiga oftob tegib, erkin nafas ola boshlagan xalq qullik kishanini qaytadan kiymaydi.

O'zbekistonda qaror topa boshlagan ijtimoiy adolat, ayniqsa mustaqilligimiz sharofati bilan boy islom tarixi va madaniyatiga, diniy-madaniy merosimiz, ma'naviy qadriyatlarimizga munosabat batamom o'zgardi. Haqiqatan Movorounnahr o'lkasi o'tmishda islom madaniyatining bir qismi bo'lgan, hozirgi kunda dunyodagi barcha musulmonlar diniy va dunyoviy sohada o'zbek mutafakkirlari qoldirgan merosni o'zlariniki deb his qiladilar. Xususan, diniy sohada yaratilgan asarlar musulmonlarning mushtarak merosi hisoblanadi.

Diniy ekstremistik oqimlar va fundamentalistlar islom dinining mazmun-mohiyatini va oliy insoniy me'yorlarini buzib talqin qilib, undan o'zlarining yovuz maqsadlari yo'lida foydalanishga uringanliklarini diqqat bilan kuzatilsa, hozirgi davrda islom dini ta'limotining asl mohiyatini yoritib borib, uning tinchliksevarlik va insonparvarlik maqsadlariga yo'naltirilgan g'oyalarini xalqqa to'g'ri



yetkazish, islam ulamolari oldida turgan vazifalardan ekanini tushunish mumkin. “Hozirgi kunda soxta salafiyalar tomonidan e’tirof etilgan mazhablarning tan olinmayotgani, ularning “mazhablar turli ixtiyoflarga zamin yaratib, musulmonlarning birligini buzmoqda”<sup>1</sup> degan da’volari ham ularning asl mohiyatini yaqqol namoyon etadi. Zero, bunday iddaolari bilan ular diniy birlik va aqidaviy yakdillikka rahna solmoqda. Chunonchi, ular mazhabboshimiz Imomi A’zam Abu Hanifa rahmatullohi alayhining fikrlariga mensimasdan qarash, uning shaxsiyatini kansitish kabi qabihliklarga bormoqda. Soxta salafiyarning Misrdagi rahnamolaridan birining mazhab imomlarini adashganlikda ayblab, Abu Hanifa rahmatullohi alayhini “Abu Jiyfa” (“murda otasi”) va Imom Molikni “Imom Holik” (“halok bo’luvchi”) deb haqorat qilgani ham bunga misol bo‘la oladi.

Shu kabi dolzarb holat va masalalarni “Jaholatga qarshi ma’rifat” uslubida yengish uchun sof isloymi, asl ilmiy haqiqatlarni va hanafiy mazhabining imomi – Imomi A’zam Abu Hanifa No’mon ibn Sobit rahmatullohi alayhi hazratlariga bo‘layotgan salbiy fikrlarni asossiz, tuhmat ekanini ilmiy isbotlab berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Abu Hanifa rahmatullohi alayhi borasida ba’zi ilmdan bexabar insonlar tomonidan: “U hadis ilmidan bexabar bo‘lgan” yoki “U ahli ra’y ya’ni – o‘z fikriga suyanib, hadislarga e’tibor bermagan” degan tuhmatlar uchrab turibdi. Ana shunday insonlar uchun va boshqa musulmonlar ularning gapiga chalg‘ib qolmasliklari uchun Abu Hanifa rahmatullohi alayhining hadis ilmida tutgan o‘rnlari va hadis borasida yozgan asarlarining ahamiyatini ilmiy asoslab berish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Aynan Abu Hanifa rohimatullohi alayhining ustozlarining asosiy qismini sahobalar yoki bevosita sahobalardan dars olgan tobeinlar ekanligi, Abu Hanifa rohimatullohi alayhi faoliyatida sahobalarning o’rni kattaligidan dalolatdir.

Tarixga oid yozilgan manbalarda Abu Hanifaning hayotiga tegishli ma’lumotlar yetarlicha yoritilgan. Tabaqot va tarojim haqidagi kitoblarning hech biri allomaning tarjimai holidan xoli emas. Bundan tashqari uning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag‘ishlab yozilgan mustaqil asarlarni ko‘plab topish mumkin. Qisqasini aytganda, Abu Hanifaga berilgan ta’rif va tavsiflar uning hayotidagi hamma jabhalarini qamrab olgan va tadqiqotchi bu borada yangilik qilishiga ehtiyoj qolmagan.<sup>2</sup> Shunday bo‘lsa ham bitiruv malakaviy ishi mavzusi Allomaning faoliyati va u kishi asos solgan Hanafiylik mazhabida sahobalarning o’rni to‘g‘risida bo‘lgani uchun uning hayoti haqida qisqacha so‘z yuritiladi va fiqh bilan shug‘ullanib, faqih va mujtahid sifatida tanilishlarida bevosita sahobalarning o’rni katta bo‘lgani ham yoritiladi.

Hanafiylik asoschisi Imom A’zam Abu Hanifa No’mon ibn Sobitdir. U hijriy 80-150/milodiy 699-767 yillarda hayot kechirgan. Ko‘fa shahrida voyaga yetgan. Xayruddin Zirikliy “Al-A’lam” kitobida Imom A’zamning otasi Sobit haqida quyidagilarni qayd etgan: “Sobitning otasi Zutiy Ali (r.a.)ning oldiga boradi va unga hadya berib, o’g’li Sobitning haqiga duo so‘raydi. Ali ibn Abi Tolib uning va avlodlarining haqiga baraka tilab duo qiladi”.

Sobit solih, xudojo’y inson bo’lib voyaga yetdi. Naql qilinishicha, Sobit Ko‘fa shahrida birovning olmasidan bir tishlamni ruxsatsiz yegani uchun egasidan halollik so‘raganida, uning imoni pok ekanini ko‘rgan olma sohibi qizini nikohlab beradi va keyinchalik bu nikoh sabab Imom A’zam dunyoga keldi.

<sup>1</sup> Meliqo’ziyev J. Halokat tuzog‘i. – Toshkent: “Toshkent islam universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – B. 32

<sup>2</sup> Ahmad ibn Muhammad Nasiruddin Naqib. Al-Mazhabul hanafiy. – Riyoz: Maktaba ar-rushd. nashr sanasi noma’lum. –

B.45.



No'mon ibn Sobit Ko'fa shahrida ilm ahllari orasida voyaga yetdi. Bilimi chuqur inson sifatida tanildi. O'z kasbi orqasidan kun kechirar edi. Chunki otasidan unga katta boylik meros qolgan edi va uni tijoratga sarf etib, daromadini ilmu ma'rifat yo'lida sarf etardi.

U yoshlik chog'idayoq ilm markazi bo'lmish Ko'fa shahrida Qur'oni karimni yodladi va uning ma'nolarini fahmlashga intildi. Keyinchalik mantiq va kalom ilmi bilan shug'ullanib, bu borada atrofdagilardan o'zib ketdi. Fiqh ilmini ustozni Hammud ibn Abu Sulaymondan 18 yil davomida o'rgandi. Umri davomida 55 marta haj qildi. Har bir hajda ko'plab ilm ahllari bilan muloqotga kirishdi. Natijada o'z fiqhiy mazhabiga asos soldi.

No'mon ibn Sobit tarixga ikki sharaflı nom bilan kirdi.

1. Abu Hanifa, ya'ni to'g'ri yo'lida sobit turuvchilar rahnamosi. "Hanafiy" so'zining kelib chiqishi shu nomdan.

2. Imom A'zam, ya'ni buyuk imom.

Imom A'zam ham aqidaviy ta'limotga ham fiqhiy mazhabga asos soldi. U birinchi bo'lib fiqhni boblarga bo'ldi. Aqida ilmidagi ilk asar "Al-fiqhul-akbar", ya'ni "Katta fiqh" degan kitobni yozdi. Unda islomdagi musaffo e'tiqod ta'limoti o'z ifodasini topgan. Keyinchalik Imom A'zamning mazkur asariga ko'plab sharhlar bitilgan.

Abu Hanifaning ilk ilmiy faoliyatlarining boshlang'ich nuqtasi Ko'fa ilm markazi bo'lgan. Sahobalardan ilk ta'limlarni ham Ko'fa shahrida olganlar. Sahoba va tobeinlarning ilmlaridan bahramand bo'lgan Abu Hanifa rohimatullohi alayhi vaqt o'tishi bilan nomlari bilan ataladigan mazhabga asos soldilar

"Bag'dod tarixi" kitobida keltirilishicha, Abu Hanifa hukmdor Abu Ja'far Mansur huzuriga kirganida uning oldida o'tirgan Iso ibn Muso hukmdorga: "Bugungi kunda dunyoning eng yetuk olimi ushbu Abu Hanifadir", dedi. Shunda Mansur Abu Hanifaga: "Ey No'mon! Ta'limni kimdan olgansan?", dedi. U: "Umarning izdoshlari orqali Umardan, Alining izdoshlari orqali Alidan, Abdullohning izdoshlari orqali Abdulloh ibn Mas'uddan oldim. Ibn Abbas davrida yer yuzida undan ko'ra olimroq kishi yo'q edi (ya'ni, ibn Abbas shogirdlaridan ham ta'lim olganliklarini aytmoqchilar)", dedi. Shunda Abu Ja'far Mansur: "Haqiqatan ham sen o'zingga kuchli hujjat to'plagan ekansan", deya e'tirof etdi. Ushbu rivoyatdan bilib olishimiz kerak bo'lgan e'tiborga loyiq jihatlardan biri Abu Hanifa r.a o'z davrida mayjud barcha fiqh maktabalaridan ta'lim olgan:

### **Basra fiqh maktabi**

Abu Ja'far ibn Mas'ud Abu Hanifadan kimdan ta'lim olgansan, degan savoliga Abu Hanifa: "Umarning izdoshlari orqali Umardan..." deb javob berdi. Tarixdan ma'lumki Basra fiqh maktabi asoschisi Umar ibn Xattob roziyallohu anhu hisoblanadi. Umar roziyallohu anhu Basra shahriga ilm tarqatish, insonlarga Qur'onidan, Sunnatdan shariatdan ta'lim berishligi uchun kuchli sahobalarni u yerga yuborganlar. Abu Muso Ash'ariy, Anas ibn Molik, Imom Hasan Basriy, Muhammad ibn Siyrin kabi faqihlar shular jumlasidandir. Mazkur sahobalar Basra fiqh maktabining rivojiga o'z hissalarini qo'shishgan bo'lib keyinchalik ularning ilm bulog'idan Abu Hanifa rahimatullohi alayhi kabi buyuk allomalar yetishib chiqdi.

### **Kufa fiqh maktabi**

Abu Ja'far ibn Mas'ud Abu Hanifadan kimdan ta'lim olgansan, degan savoliga Abu Hanifa: "Alining izdoshlari orqali Alidan..." deb javob berdilar. Ali roziyallohu anhu Umar roziyallohu anhu davrida Kufa fiqhiy maktabida ta'lim bergenlar va ular bilan bir davrda mashhur sahobalardan Abdulloh ibn



Mas'ud roziyallohu anhu Islom ta'limoti va fiqh ilmlari bilan shug'ullanib kelishgan. Ularning fiqh ilmi borasidagi ilmlari esa izdoshlari orqali Abu Hanifa rohimatullohga yetib brogan. Ali va Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhularning Kufa fiqh maktabidagi foaliyatları haqida tarixiy manbaalarda ma'lumotlar ko'p. Keyinchalik bu madrasadan Shurayh ibn Horis Kindiy, Ibrohim ibn Yazid Naxa'iy, Sa'iyd ibn Jubayr kabi mashhur faqihlar yetishib chiqdi. Imom Abu Hanifa esa bevosita mazkur shaxslarning o'zidan yoki shogirdlaridan ta'lim olganliklari ularning faqih sifatida yetuk olim bo'lishlariga katta hissa qo'shgan.

### **Shurayh ibn Horis Kindiy.**

Shurayh ibn Horis Kindiy ham sahobalardan bo'lib ba'zi manbaalarda ul zot fors yurtlaridan ekanliklari haqidagi ma'lumotlar uchrab turadi. Shurayh ibn Horis Kindiyni sahoba bo'lganliklariga tarixchi ulamolar ittifoq qilishgan. Islomni qabul qilishlari Rasululloh salollohu alyhi vasallamga vafotlariga yaqin davrda bo'lganligiga oid ham tarixiy manbaalarda fikrlar uchraydi. Umar roziyallohu anhu davrida esa 60 yil Kufa shahrida qozilik qiladilar. Ash'as roziyallohu anhu Ibn Sirin roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar: «Men Kufaga borganimda, fiqhda eng yaxshi bo'lgan olimlarning to'rttasi bor edi. Ular: Ubayda, Horis, keyin Alqama, keyin Shurayh. Sha'biy aytadilar: Shurayh qozilik sohasida ularning eng bilimdoni edi.

### **Sa'id ibn Jubayr**

Sa'id ibn Jubayr Ali roziyallohu anhu davrida Kufa shahrida tug'ilgan. Yoshligidan ilmga muhabbat qo'yib ko'pgina sahobalardan ta'lim olgan. Qur'on ilmlarini Ibn Abbosdan o'rganib tafsirga oid o'nlab hadis rivoyat qilgan. Xasif ibn Abdurrahmon Ibn Abbosning sahobalaridan rivoyat qiladilar: Qur'oni karimda eng ilmlisi Mujohid, hajda eng ilmlisi Ato, taloq bo'yicha eng ilmlisi Said ibn al-Musayyib, bu ilmlarning hammasini bilimdoni esa Said ibn Jubayr edi.

Imom A'zam o'z davrining ko'zga ko'ringan faqih va muhaddis olimlaridan ta'lim oldi. Jumladan, mashhur muhaddis Imom A'mashdan hadislarni o'rganar va yod olar edi. Imom A'mashning oldida Abu Hanifa bir odamning fiqh borasidagi savoliga javob berdi. Shunda A'mash: "Nimaga asoslanib bunday javob berding?", deya so'radi. Imom A'zam: "O'zingiz rivoyat qilgan hadislarga asoslanib" deb, bir nechta hadisni sanab berdi. Imom A'ma shogirdining zakovatiga qoyil qolib: "Ey faqihlar jamoasi, sizlar tabib, biz muhaddislar esa dorishunos ekanmiz", dedi.

Tarojim va manoqib kitoblarida bu boradagi ma'lumotlar yetarlicha. Makkiy o'zining manoqibida Abu Hanifa ustozlarining nomlarini abjad harflari tartibida o'n yettita sahifada keltirib o'tgan. Ularning adadi uch mingta bo'lib, mingtasi porlab turgan yulduz kabidirlar. Ibn Hajar Haytamiyning fikricha, uning tobein ustozlarining adadi to'rt mingta atrofida bo'lgan.<sup>3</sup> U zot juda ko'p ustozlardan ilm o'rgangan. Shulardan Kufalik ustozlarining ba'zilari quyidagilar:

### **Omir ibn Sharohil Sha'biiy**

Omir ibn Sharohil Sha'biiy (vaf. 103 h.). Amiru-l-mo'minin Umar roziyallohu anhu xalifaligining oltinchi yilida tavallud topgan. Sahobalardan besh yuztasi bilan uchrashgan.<sup>4</sup> Mashshur tarixchi Az Zahabiy aytadilar: U yod oluvchi imom, sinchkov fiqh, sobit va usta edi. Ibn Hajar al Asqaloniy aytadilar: «U ishonchli, taniqli va solih faqihdir.: Muhamad ibn Sirrin (u zotning quoqlari eshitmagan) « Men Kufaga borganimda , ash-Shabining davrasi juda katta edi va

<sup>3</sup>Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Ali ibn Hajar Haytamiy. Al-Xayrotul hison fi manoqibi-l-imam Abi Hanifa Numon.

– Bayrut: Doru-l-kutubu-l-ilmiyya, 1407 h. – B.23.

<sup>4</sup>Abdurrazzoq ibn Hasan ibn Ibrohim Baytor. Hulyatul bashar fi tarixi-l-qorni-s-salisi ashara. – Damashq: Matbatatu-t-taraqqiy, 1383. – B. 328.



mazkur davrada sahabalar ko'p edi" deydilar. Abu Hanifa rohimatullohi alayhi ham mazkur sahabalarga dars bergen Omir Sha'biydan ilk ta'limirinini oladilar.

### **Hammod ibn Sulaymom**

Hammod ibni Abu Sulaymon Kufiy rohimatulloh alayhi nafaqat Ko'fa shahrida balki o'sha davr musulmonlari orasidagi fiqh ilmining yetuk olimlaridan bo'lib tanilganlar. U zot ustozlaridan o'rgangan ilmlarini to'plab shogirdlariga uzun bir vaqt mobaynida dars berdilar. Shu munosabat bilan u zotning qo'l ostilarida juda ko'plab olimlar yetishib chiqishdi. Ular ichida eng mashhuri hamda ko'zga ko'ringani Imom A'zam Abu Hanifa No'mon Ibni Sobit rohimatulloh alayh bo'ldildar. Ibni Obidin rohimatulloh alayh shunday deydar:

Fiqhga bo'lган ehtiyoj insonlar uchun non kabitdir. Bu bilimning urug'ini Ibni Mas'ud roziyallohu anhu ekdilar, u zot as'hobi kiromning eng faqihlaridan va eng olimlaridan hisoblanadilar. Shogirdlari Alqama rohimatulloh alayhi bu urug'ni suvlab ekin holiga olib keldilar. U zotning shogirdlari Ibrohim Nahai rohimatulloh alayh bu ekinni pishirib o'rdilar ya'ni ilmni bir joyga to'pladilar. Hammod rohimatulloh alayhi bu ekinni yanchib hirmon holatiga keltirdilar. Imom A'zam Abu Hanifa rohimatulloh alayhi bu hirmonni un holatiga olib keldilar ya'ni fiqh ilmini turli qismlarga ajratdilar. Imom Abu Yusuf undan hamir qildilar va Imom Muhammad uni pishirib odamlarga non holatida yetkizdilar. Mana shunday tayyorlangan nonni bugun insonlar yemoqdalar. Ya'ni bu ilmlarni o'rganib ikki dunyo saodatiga yetishmoqdalar.

Kufa ilm markazining yana boshqa ustozlarining ta'limi asosida Abu Hanifa rohimatullohi alayhi fiqh ilmi borasida juda katta yutuqlarga erishdilar va Kufa fiqh maktabining eng mashhur mufaqqihlaridan bir sifatida tan olinib o'z mintaqalarida yangi mazhab asoschisiga aylandilar.

## **FOYDALANILINGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: «O'zbekiston», 2016.
2. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar'. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : «O'zbekiston», 2017.
4. A.Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi // Tarjima va izohlar muallifi Shayx-Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004.
5. Abdulloh Murod Holmurod o'g'li. Musnad. – Toshkent "Movarounnahr" nashriyoti, 2014.
6. Abdulvahhob Xallof. Usulul fiqh. – Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 1997. – B. 78.
7. Bahromov.A Asarlar. – Toshkent. "Movarounnahr", nashriyoti. 2003.



8. Islom huquqi va metodoligiyasi: O'quv qo'llanma. Toshkent: Toshkent islom Universiteti, 2020. –B 69
9. Oqilov S. Primov S. G'iyosov A. Sunniylik ta'limoti. "Toshkent islom universiteti", 2012.
10. Saidjalolov.S Islomdagি mazhablar va oqimlar: O'quv qo'llanma. "Toshkent islom universiteti" – Toshkent. – 2012
11. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. – Toshkent: "Sharq", 2014.
12. Uvatov U. Yurtimiz allomalari. – Toshkent: "Nihol" , 2014.

**Arab tilidagi:**

1. Abdulloh as-Subazmuniy. Kashf al-osor fi manoqib Abi Hanifa. – TDShI qoshidagi Abu Rayxon Beruniy nomli sharq qo'lyozmalari markazi fondi. Qo'lyozma № 3105. – B. 256.
2. Abdurrazzoq ibn Hasan ibn Ibrohim Baytor. Hulyatul bashar fi tarixi-l-qorni-s-salisi ashara. – Damashq: Matbatatu-t-taraqqiy, 1383. – B. 328.
3. Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiy. Al-Musnad. – Madina: Maktaba al-ulum va-l-hikam, 1990. – J. 1.
4. Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Ali ibn Hajar Haytamiy. Al-Xayrotul hison fi manoqibi-l-imam Abi Hanifa Numon. – Bayrut: Doru-l-kutubu-l-ilmiyya, 1407 h. – B. 193.
- 5.

